



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
JIZZAX VILOYATI KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH VA
MUVOFIQLASHTIRISH HUDUDIIY BOSHQARMASI**

Manzil: Jizzax shahri Sayiljoyi mahallasi Bo'ston ko'chasi 5 uy, fax: 226-30-83, email:jiz.vilumkxtb@exat.uz

2022 yil 31 yanvar

BO'-01/02-101-son

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va
o'rta maxsus ta'lim vaziri
A.Toshkulovga**

Hurmatli Abduqodir Hamidovich!

Jizzax shahar kasb-hunar maktabida bugungi kunda 761 nafar o'quvchilar taxsil olib kelmoqda. Shundan, yotoqxonaga extiyoji mavjud bo'lgan o'quvchilar soni 100 nafardan ortiqni tashkil etadi.

Jizzax shahar kasb-hunar maktabining 200 o'rinli o'quvchilar turar joyi mavjud bo'lib, foydalanishga yaroqsizligi sababli bugungi kunda mexribonlik uyi bitiruvchilari hamda yotoqxonaga extiyoji mavjud bo'lgan o'quvchilar uchun kasb-hunar maktabi o'quv binosining 3-qavatida qizlar uchun, 4-qavatida o'g'il bolalar uchun moslashtirilgan 53 o'rinli o'quvchilar turar joyi tashkil etilgan. *(har bir xonalarda 10 kishi joylashtirilgan, jihozlanmagan, sanitariya-gigienik talablariga javob bermaydi).*

Ushbu o'quvchilar turar joyini ta'mirlash uchun mablag' ajratishda amaliy yordam so'ralib tegishli tashkilotlar *(viloyat hokimligi va viloyat Moliya boshqarmasi)*ga bir necha marotaba murojaat qilingan bo'lsada mablag' ajratilmasdan kelinmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib o'quvchi va talabalarga qulay shart-sharoitlar yaratish, yotoqxona bilan ta'minlash darajasini yaxshilash maqsadida Jizzax shahar kasb-hunar maktabining ko'p yillardan buyon yaroqsiz holatdaligi bois foydalanilmasdan kelingan 200 o'rinli yotoqxona binosini Jizzax davlat pedagogika inistituti *(Jizzax davlat pedagogika inistituti rektori va Jizzax shahar kasb-hunar maktabining takliflarini o'rganib chiqib)* balansiga o'tkazish taklifini bildiramiz.

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: WK74187272

Mazkur yotoqxona Jizzax davlat pedagogika inistituti balansiga o'tkazilgan taqdirda, inistitutning byujetdan tashqari mablag'lari xisobidan ta'mirlanib, yotoqxonaning 1-qavati o'zaro kelishuv asosida uzoq muddatga beg'araz foydalanish uchun kasb-hunar maktabi o'quvchilariga (*bunda ikki qavatli kravatlar joylashtirilsa 100 o'rinli yotoqxona paydo bo'ladi*) hamda 2-3-4 qavatlarida (*300 o'rinli yotoqxona paydo bo'ladi*) inistitut talabalarining foydalanilishi uchun topshiriladi.

Hurmatli Abduqodir Hamidovich, Sizdan ushbularni inobatga olib yaroqsizligi sababli bo'sh turgan Jizzax shahar kasb-hunar maktabining 200 o'rinli yotoqxona binosini Jizzax davlat pedagogika inistituti balansiga o'tkazilishida amaliy yordam berishingizni so'rayman. Shunda 200 o'rinli foydalanishga yaroqsiz yotoqxona o'rnida 400 o'rinli yotoqxona paydo bo'ladi.

Jizzax davlat pedagogika inistituti va Jizzax shahar kasb-hunar maktabining xatlari ilova qilinadi.

Ilova 2-varaqda.

Boshqarma boshlig'i



B.O'sarov

Ijrochi: N.Mo'minov
Tel: (72) 226-00-62



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**
130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4-uy
tel.: (372) 226-13-57, fax: (372) 226-46-56,
web-site: www.ispi.uz, E-mail: jspi_info@mail.ru
STIR 200343003, MFO 00014,
SHHR 100010860084017094100079002

2022 y. 01.02 № 01-77

dagi № ga

**Жиззах вилояти Касбий
таълимни ривожлантириш ва
мувофиқлаштириш ҳудудий
бошқармаси бошлиғи
Б.Ўсаровга**

Жиззах давлат педагогика институти Сизга шуни маълум қиладики, институтда тахсил олаётган талабаларни ётоқхона билан таъминлаш даражасини яхшилаш мақсадида Жиззах шаҳар касб-хунар мактабининг кўп йиллардан буён яроқсиз ҳолатдалиги боис фойдаланилмасдан келинган 200 ўринли ётоқхона биносини Жиззах давлат педагогика институти балансига ўтказиш таклифини билдирамиз.

Мазкур ётоқхона Жиззах давлат педагогика институти балансига ўтказилган тақдирда, институтнинг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан таъмирланиб, ётоқхонанинг 1-каватидан ўзаро келишув асосида вақтинчалик касб-хунар мактаби ўқувчилари учун, 2-3-4 қаватлари институт талабаларининг фойдаланилиши учун топширилади.

Сиздан яроқсизлиги сабабли бўш турган Жиззах шаҳар касб-хунар мактабининг 200 ўринли ётоқхона биносини Жиззах давлат педагогика институти балансига ўтказилишида амалий ёрдам беришингизни сўрайман.

Ректор

Ш.С.Шарипов

Ижрочи: Д.Шербоев
Тел: 998 94 1968852

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYATI KASBIY TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH VA MUVOFIQLASHTIRISH
HUDUDIIY BOSHQARMASI

JIZZAX SHAHAR
KASB-HUNAR MAKTABI



МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ
РАЗВИТИЯ И КООРДИНАЦИИ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ
ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ШКОЛА
ГОРОДА ДЖИЗАКА

Manzil: Jizzax viloyati, Jizzax shahar, Sayiljoyi MFY, Bo'ston ko'chasi 5-uy

H/r: 100010860084017092600028003 INN: 202417138 MFO: 00014 Toshkent shahar Markaziy bankining Toshkent shahar RKS

E-mail: jiz.jyskhk@markaz.uz, Web-sayt: www.jizzaxsh4.zn.uz Tel.: 226-54-30, 226-50-60

№.R01/02-07 -sonli

"28" yanvar 2022 -yil

Jizzax viloyati kasbiy ta'limni
rivojlantirish va muvofiqlashtirish
hududiy boshqarmasi boshlig'i
B.O'.O'sarovga

Hurmatli Bobur O'sarovich!

Jizzax shahar kasb-hunar maktabi sizga shuni yozib ma'lum qiladiki, Jizzax shahar kasb-hunar maktabi o'quvchilardan o'quvchilar turar joyiga bo'lgan ehtiyoji 100(yuz) o'rinni tashkil etayotganini hisobga olib, 1987 yilda foydalanishga topshirilgan 400 o'rinli o'quvchilar turar joyi, hozirgi kunda to'liq yaroqsiz holga kelib qolgan, kapital rekonstruktsiya qilish uchun bir necha yildan beri Jizzax viloyati Moliya boshqarmasi va Jizzax viloyati Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasiga bir necha marotaba xat bilan murojaat qilingan, lekin mablag' ajratilmagan. Shularni hisobga olib Jizzax shahar kasb-hunar maktabining 400 o'rinli o'quvchilar turar joyini (yotoqxonasini), o'quvchilar turar joyiga ehtiyoji bo'lgan Jizzax Davlat pedagogika instituti yoki O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax viloyati filiali balansiga o'tkazishda va kelgusida quvchilar turar joyining 1(birinchi) qavatini (100 yuz o'rinli joyini) o'quvchilarga beg'araz foydalanishi uchun ajratilishida amaliy yordam berishingizni so'raydi.

Jizzax shahar kasb-hunar
maktab direktori:

(baj: M.R. Rajabov)
Tel: 99-355-40-25



F.X. Azimov